



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-maxsus  
son (5-jild)

2025

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

***Nº S/4 (5) - 2025***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

*Abduraxmonov Mirsaid Muzaffarovich*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING

HUQUQIY ASOSLARI YARATILISHI ..... 10-16

*Atamuratova Dilafruz*

TURKISTON VAQTLI MATBUOTI TARIXI: XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI ..... 17-22

*Abdushukurova Iqbol*

TARIXIY KVESTLARNI TASHKIL QILISH USULLARI ..... 23-27

*Redjapov Doniyor*

JANUBIY OROLBO'YI AHOLISI HARBIY SAN'ATINING TARIXIY ILDIZLARI XUSUSIDA ..... 28-31

*Sultanov Samandar*

QUYI ZARAFSHON VODIYSI GEOGRAFIK XUSUSIYATI: PALEOEKOLOGIYASI

JARAYONLARIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR ..... 32-35

*Matyakubov G'ayrat*

XORAZM VOHASIDA IJTIMOIY-IQTISODIY VA ETNIK-MADANIY MUNOSABATLAR

RIVOJLANISHIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR (XIII-XV ASRLAR) ..... 36-39

*Eshkuvatov Muhammad Keldiyor o'g'li*

MARKAZIY OSIYO BOZORLARI (XIX ASR YEVROPALIK SAYYOHLAR NIGOHIDA) ..... 40-45

*G'aniyev Mirjalol*

QADIMGI TURKLARDA IJTIMOIY HAYOT ..... 46-51

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Abdullaev Altinbek*

KORXONALARDA UN MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH LOYIHASI

BOSH BYUDJETINING METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 52-66

*Latipov Ashur Ali, Umarova Muzira*

INVESTITSIYA STRATEGIYASI VA UNING MENEJMENTDAGI O'RNI ..... 67-71

*Rustamova Sayyora*

STRATEGIK BOSHQARUV-RAQOBAT USTUNLIGINING ASOSI ..... 72-77

*Буранова Лола, Арипова Азиза*

РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТА ДОСУДЕБНОГО РАЗРЕШЕНИЯ НАЛОГОВЫХ СПОРОВ ..... 78-87

*Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich*

KORXONALAR BOSHQARUVIDA "YASHIL" IQTISODIYOT TAMOYILLARINI

QO'LLASH AHAMIYATI ..... 88-94

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Saidov Xakim G'afurovich*

TALABALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA

TARBIYALASH – DAVLAT SIYOSATI DARAJASIDA ..... 95-98

*Kadirova Ziyoda*

ILMIY IJODNING IJTIMOIY, MADANIY VA TARIXIY O'LCHAMLARI ..... 99-104

<i>Muzaffarov Navruzzxon Baxronovich</i>	
SHAYX XUDOYDOD VALINING INSON VA OLAM MUNOSABATLARIGA	
OID QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI .....	105-108
<i>Raxmatova Mexrinoz Majitovna</i>	
YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI YUKSALTIRISH BORASIDAGI	
DAVLAT SIYOSATINING NAZARIY-HUQUQIY VA FALSAFIY ASOSLARI .....	109-113
<i>Karimova Lola Muzafarovna</i>	
IJTIMOIY MOBILLIK NAZARIYASIGA YONDASHUVLARNING TARIXIY TAHLILI .....	114-119
<i>Jumayeva Shahlo Suyunovna</i>	
JAN POL SARTRNING EKZISTENSIAL FALSAFASIDA ERKINLIK VA YOLG'IZLIK	
MASALARINI YORITISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	120-125
<i>Djurayev G'olib</i>	
JAN POL SARTR VA ALBER KAMYU FALSAFIY QARARSHLARIDA	
ERKINLIK MASALASI .....	126-130
<i>Rajabov O'tkirjon</i>	
KONSENSUS MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA	
"TEMUR TUZUKLARI" ASARINING AHAMIYATI .....	131-134
<i>Bekmuhammadova Sabrina Ismoil qizi</i>	
GENDER ZO'RAVONLIGIGA QARSHI KURASH CHORALARI .....	135-139
<i>Xudoykulov Azamat, Beshimova Aziza</i>	
MA'NAVIY BARKAMOL INSON TUSHUNCHASI VA UNING MOHIYATI .....	140-144

## 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Abduganiyeva Djamila Rustamovna</i>	
MACHINE TRANSLATION POST-EDITING THROUGH A HERMENEUTIC LENS .....	145-151
<i>Murtazayeva Xadicha</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TIBBIY TERMINOLOGIYASINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI .....	152-155
<i>Несипбаева Соодатхан</i>	
ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕДАЧИ АМЕРИКАНСКИХ ДИАЛЕКТИЗМОВ	
И ПРОСТОРЕЧИЙ В РУССКИХ ПЕРЕВОДАХ "ТОМА СОЙЕРА" .....	156-160
<i>Axmedjanova Farida, Toirova Shohida</i>	
XX ASRDA AYOL OBRAZINING SHAKLLANISHI VA TARAQQIYOTI .....	161-165
<i>O'ranova Shoxsananxon Nosirjon qizi</i>	
TAHDID NUTQIY AKTLARI: LINGVOPRAGMATIK TAHLIL	
VA MENASIV KOMMUNIKATSIYA XUSUSIYATLARI .....	166-170

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Salaev Nodirbek</i>	
PENITENSIAR TIZIM VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI O'RNI .....	171-178
<i>Турсунов Ойбек Батирович</i>	
МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА	
ГОСУДАРСТВ РЕГИОНА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ .....	179-184
<i>Xakimova Inobatxon</i>	
XOTIN-QIZLAR HUQUQLARINING XALQARO HUQUQ DOIRASIDA	
SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI .....	185-191

<i>Марданов Амиржон Шерзод угли</i>	
ПРАВОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ПРИ ПРИМЕНЕНИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ БАНКОВСКОГО СКОРИНГА .....	192-202
<i>Jonuzoqova Yulduz Izzatulla qizi</i>	
AXBOROT TEKNOLOGIYALARI SOHASIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDA KONVENTSIONAL VA INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH .....	203-207
<i>Xolmo'minov Shavkat Jumaevich</i>	
EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI HUQUQIY TA'MINLASH SOHASIDAGI MUHIM TASHABBUSLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI .....	208-215
<i>Khudayberganova Nigina To'lqin qizi</i>	
THE NOTION AND CODIFICATION OF THE LAW ON SPECIAL MISSIONS IN INTERNATIONAL LAW .....	216-221
<i>Саидов Бобур Бахромжонович</i>	
МЕЖДУНАРОДНОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО В ВОПРОСАХ ИНТЕРНЕТ-ЮРИСДИКЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ УНИФИКАЦИИ ПРАВОВЫХ НОРМ И ПЕРСПЕКТИВЫ УЧАСТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В ГЛОБАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМАХ РЕГУЛИРОВАНИЯ ...	222-229
<i>Normurodova Behro'za Xolmo'minovna</i>	
RAQAMLI DALILLARNI TO'PLASH VA TAHLIL QILISHDA INTERPOL VA EUROPOL TAJRIBASI: O'ZBEKİSTON UCHUN AMALIY AHAMIYATI .....	230-236
<i>Qilichova Kamola Luqmonxon qizi</i>	
DINIY MAZMUNDAGI MATERIALLARNI QONUNGA XILOF RAVISHDA TAYYORLASH, SAQLASH, OLIB KIRISH VA TARQATISH JINOYATLARINING YURIDIK TARKIB BELGILARI .....	237-248
<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i>	
BEZORILIKNING VIRTUAL YUZI: HUQUQIY BAHOLASH VA JAVOBGARLIK MASALALARI .....	249-256
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Imomov Sirojiddin Ilxomovich</i>	
SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA KASBIY-PEDAGOGIK TA'MINOTINING AHAMIYATI .....	257-263
<i>Khayrova Madina Rasimovna</i>	
NATYURMORT JANRIDA ISHLAGAN RASSOMLAR ASARLARINING REKONSTRUKTIV TAHLILI .....	264-269
<i>Mirkasimova Zilola Alisherovna</i>	
MAKTABGACHA YOSUDA NUTQ RIVOJI BOSQICHLARI .....	270-273
<i>Xudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna</i>	
AXLOQIY RIVOJLANISH VA NEYROPEDAGOGIK USULLARNING O'ZARO TA'SIRI .....	274-278
<i>Shakirova Dildora Abdumalikovna</i>	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI XORIJY VA MILLIY TAJRIBA ASOSIDA BAHOLASH .....	279-285
<i>Djurayeva Nargis Narkulovna</i>	
TABIYY FANLAR DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTENSIV METODLARNING QO'LLANILISHI .....	286-290

*Baltayeva Ma'mura, Davletova Bikajon*

MEDIA LITERACY TEACHING METHODOLOGY ..... 291-294

**Received:** 05 May 2025

**Accepted:** 15 May 2025

**Published:** 30 May 2025

*Article / Original Paper*

## **MEASURES TO COMBAT GENDER VIOLENCE**

**Bekmukhammadova Sabrina Ismail kizi,**

Gulistan State Pedagogical Institute

**Abstract.** The article analyzes the concept of gender violence, its types and negative impact on social life. It also discusses legal, educational and social measures to combat gender violence. It is argued that it is possible to build a healthy and stable society by ensuring gender equality. The article is useful for specialists involved in gender issues, educators and the general public.

**Keywords:** Gender-based violence, human rights, equality, physical violence, psychological violence, legal measures, society, women's rights.

## **GENDER ZO'RAVONLIGIGA QARSHI KURASH CHORALARI**

**Bekmuhammadova Sabrina Ismoil qizi,**

Guliston davlat pedagogika instituti,

E-mail: [bekmuhammedova@gmail.com](mailto:bekmuhammedova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Maqolada gender zo'ravonligi tushunchasi, uning turlari va ijtimoiy hayotdagi salbiy ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, gender zo'ravonligiga qarshi kurashishning huquqiy, ta'limiy va ijtimoiy choralari haqida fikr yuritiladi. Gender tengligini ta'minlash orqali sog'lom va barqaror jamiyat qurish mumkinligini asoslanadi. Maqola gender masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, pedagoglar va keng jamoatchilik uchun foydalidir.

**Kalit so'zlar:** Gender zo'ravonligi, inson huquqlari, tenglik, jismoniy tazyiq, ruhiy bosim, huquqiy choralar, jamiyat, ayollar huquqi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI4Y2025N22>

**Kirish.** Bugungi kunda gender tengligi va inson huquqlarini ta'minlash masalalari global miqyosda dolzARB mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, gender zo'ravonligi kabi salbiy holatlarning mavjudligi nafaqat alohida shaxslar, balki butun jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilmoqda. Gender zo'ravonligi – bu shaxsning jinsi asosida unga nisbatan sodir etiladigan jismoniy, ruhiy, iqtisodiy yoki jinsiy tazyiqlarning jamlanmasidir. Ushbu maqolada gender zo'ravonligining asosiy ko'rinishlari, uning oqibatlari hamda unga qarshi kurashish yo'llari yoritib beriladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Gender zo'ravonligiga qarshi kurash choralar deganda, ayollar va qizlarga nisbatan jinsga asoslangan tazyiq tahdid, zo'rlik, kamsitish yoki haqorat kabi har qanday salbiy harakatlarning oldini olish, kamaytirish va ularni bartaraf etishga qaratilgan huquqiy, ijtimoiy, ta'limiy va madaniy chora – tadbirlar tushuniladi.

Mazkur masala doirasida faoliyat olib borayotgan tashkilotlar ham dunyoda yuzaga kelayotgan muammolar, turli bosimlar, inqirozlar ta'sirida qolayotgan ayollarni himoya qilishga asosiy e'tiborni qaratib kelishmoqda. "BMT Ayollar" Birlashgan Millatlar Tashkilotining gender tengligi va ayollar huquqlarini kengaytirishga bag'ishlangan tashkiloti

mavjud bo'lib, mazkur sohada samarali faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholi jamg'armasi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) gender zo'ravonligi bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib boradi va doimiy hisobotlar e'lon qiladi.

Mamlakatimizda ham Respublikada oila va xotin-qizlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, ularning muammolariga tizimli yechim topish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagи "Oila va xotin-qizlar bilan ishslash, mahalla va nuroniyarlarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-sonli Farmoni hamda "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-146-sonli Qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari va tuman (shahar) bo'linmalari tashkil etilgan.

**Muhokama.** Gender zo'ravonligining asosiy ko'rinishlari mavjud. Gender zo'ravonligi – bu insonning jinsi yoki ijtimoiy roli asosida unga nisbatan ko'rsatiladigan salbiy munosabat va tazyiq shakllarining yig'indisidir. Bu turdagи zo'ravonlik ko'pincha yashirin tarzda ro'y beradi va ko'pchilik uni oddiy holat yoki "shaxsiy ish" deb qabul qilgani sababli o'z vaqtida aniqlanmaydi. Quyida gender zo'ravonligining asosiy shakllari keltiriladi:

Jismoniy zo'ravonlik — bu zo'ravonlik turi eng ko'zga ko'rinaladigan va tan olinadigan shakldir. Unga urish, itarish, kaltaklash, tanaga jarohat yetkazish kabi harakatlar kiradi. Ko'pincha oilaviy muhitda er-xotin orasida yoki ota-ona tomonidan bolalarga nisbatan sodir etiladi. Bunday harakatlar inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi va ba'zida o'lim bilan ham yakunlanishi mumkin.

Ruhiy (psixologik) zo'ravonlik — ruhiy tazyiq ko'pincha jismoniy zo'ravonlikka qaraganda ko'proq yashirin bo'ladi. Bunga haqorat qilish, kamsitish, tahdid qilish, qichqirish, doimiy nazorat ostida saqlash, izolyatsiya qilish kabi harakatlar kiradi. Bu shakldagi zo'ravonlik insonning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytiradi, depressiya, xavotir, hatto o'z joniga qasd qilish holatlariga olib kelishi mumkin.

Jinsiy zo'ravonlik — bu shaxsning roziligesiz unga nisbatan jinsiy harakatlarni amalgalashdir. Bunga jinsiy tajovuz, nikohda bo'lganiga qaramay aloqaga majburlash, jinsiy tahdidlar, kamsituvchi izohlar kiradi. Bu turdagи zo'ravonlik odatda jamiyatda yopiq mavzu sifatida qabul qilinadi, natijada jabrlanuvchilar ko'pincha jim yurishga majbur bo'ladilar.

Ijtimoiy zo'ravonlik – shaxsning ijtimoiy hayotdagi erkinligini cheklashdir. Do'stlar bilan uchrashish, ta'lim olish, ishga kirish, internetdan foydalanish kabi huquqlarning cheklanishi bu shakldagi tazyiqdir. Ayrim hollarda oilaning, jamiyatning yoki hatto diniy qarashlarning bosimi ostida odamlar o'z shaxsiy hayotini erkin tashkil eta olmaydilar.

Gender zo'ravonligiga qarshi kurash choralari bor. Gender zo'ravonligiga qarshi kurashish – bu nafaqat huquqiy tizim, balki butun jamiyat zimmasiga yuklangan muhim vazifadir. Zo'ravonlikka qarshi chora-tadbirlar tizimli, barqaror va ko'p yo'nalishli bo'lishi zarur. Gender zo'ravonligiga qarshi samarali kurashning eng muhim yo'llaridan biri – bu qonunchilikni kuchaytirish va mavjud qonunlarni amalda qo'llashdir. Zo'ravonlikka qarshi maxsus qonunlar, jinoyat kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar, himoya orderlari va tezkor aralashuv mexanizmlari jabrlanuvchini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini gender masalalari bo'yicha muntazam o'qitish kerak [1; 2-6-6.].

O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-sonli qarorida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari keltirib o'tilgan bo'lib, ular mazkur sohadagi normativ-huquqiy bazani shakllantirish va takomillashtirish, mazkur sohadagi davlat dasturlarini, milliy harakatlar rejalarini va strategiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari madaniyatini shakllantirish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda xotin-qizlar va erkaklarning teng ishtirok etishini ta'minlash kabilarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, mehnatga oid va oilaviy majburiyatlarni birga bajarishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash, oilani, bolalikni ijtimoiy jihatdan himoya qilish va qo'llab-quvvatlash, mas'uliyatli onalik va otalikni shakllantirish, jins bo'yicha bevosa va bilvosita kamsitishga qaratilgan axborotdan jamiyatni himoya qilish davlat siyosating asosiy yo'nalishi etib belgilangan [2; 3-4-6.].

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida" SQ-297-IV-sonli Qarori mavjud bo'lib, unda gender strategiyasining maqsadi va vazifalari keltirib o'tilgan. Gender strategiyasining asosiy vazifalari xotin-qizlarning yer va mulkka nisbatan egalik qilish imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta'lim, ilm-fan hamda sport munosabatlarida xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ishtirok etishlarini qo'llab-quvvatlash, qaror qabul qilishda ularning yetakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarni yaratish, xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, ularning jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq salbiy qarashlarni o'zgartirish, aholi bandligi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun kafolatlangan teng huquq hamda imkoniyatlarni, shuningdek, munosib ish o'rinalarini yaratish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, xotin-qizlarning tijorat banklaridan kredit olishga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari qarorda xotin-qizlar va erkaklarni butun umri davomida o'qishga bo'lgan imkoniyatlarini rag'batlantirish, ularning oilani rejalashtirish borasidagi tibbiy madaniyatini oshirish va reproduktiv salomatligini mustahkamlash, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini yuksaltirish, odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish, tazyiq va zo'ravonlikni oldini olish, ularni aniqlash va barham berish bo'yicha samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish asosiy vazifa etib belgilangan.

**Natijalar.** Jamiyatda gender tengligi g'oyasini shakllantirish uchun maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab, oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda genderga oid bilimlar berilishi lozim. O'quvchilar va talabalar orasida gender stereotiplari, zo'ravonlik oqibatlari va inson huquqlari mavzularida ochiq suhbatlar, treninglar tashkil etilishi kerak. Bundan tashqari, ota-onalarning o'zi ham ushbu masalada ma'rifatli bo'lishi zarur. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida" SQ-297-IV-sonli Qarorida bu sohada uzlusiz ta'lim tizimini rivojlantirish, xotin-qizlar va erkaklarni butun umr davomida o'qishga bo'lgan imkoniyatlarini rag'batlantirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarni oliy ta'lim bilan qamrab olinishini kengaytirish, xotin-qizlarni ilmiy faoliyatga keng jalb qilish, ularning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan dasturiy ishlanmalarini, innovatsion g'oyalarini, ixtirochilik, ratsionalizatorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, zamonaviy pedagogik

texnologiyalar va uslublarni hisobga olgan holda maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga gender mavzusini joriy etish orqali fuqarolarning genderga oid savodxonligini yuksaltirish kabi vazifalar ustuvor qilib belgilangan.

Shuningdek, ehtiyoji yuqori bo'lgan sohalarda mahalliy va xorijiy ta'lim muassasalariga o'qishga va malaka oshirishga xotin-qizlarni jalb qilish, mavjud va kelajakda yaratiladigan maktab darsliklari, o'quv-uslubiy materiallar va boshqa nashrlarning jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik prinsipiga muvofiq gender ekspertizadan o'tkazish amaliyotini yo'lga qo'yish, ijtimoiy himoyaga muhtoj, notinch oilalardan bo'lgan xotin-qizlarni ta'lim olishiga ko'maklashish va ularni kasbga yo'naltirish kabi vazifalar ham muhim ahamiyat kasb etadi [3; 3-32-6.].

Zo'ravonlik qurbanlariga faqat huquqiy yordam emas, balki psixologik qo'llab-quvvatlash ham muhim. Maxsus ishonch telefonlari, maslahat markazlari, psixologik reabilitatsiya markazlari orqali jabrlanuvchilar bilan doimiy aloqada bo'lish, ularga ruhiy turg'unlikni tiklashda yordam berish kerak. Shuningdek, vaqtinchalik boshpana markazlari (shelterlar) orqali ularni xavfsiz joyga joylashtirish muhim choraldandan biridir. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar gender tengligini targ'ib qilishda kuchli vosita bo'la oladi. Gender zo'ravonligi holatlari haqida xabardorlikni oshirish, real hayotiy misollar asosida ijtimoiy roliklar tayyorlash, mashhur shaxslar orqali zo'ravonlikka qarshi pozitsiyani ifoda etish jamiyatga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

**Xulosa.** Gender zo'ravonligi – bu zamonaviy jamiyat uchun hal qilinishi zarur bo'lgan muhim ijtimoiy muammo hisoblanadi. U nafaqat jabrlanuvchining jismoniy va ruhiy salomatligiga, balki butun jamiyatning axloqiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Gender asosida sodir etiladigan tazyiq va zo'ravonliklarni bartaraf etish uchun birinchi navbatda bunday holatlarni tan olish va ularga befarq bo'lmaslik lozim. Gender zo'ravonligiga qarshi kurashish faqat davlat organlarining vazifasi emas, balki har bir fuqaroning ijtimoiy mas'uliyatidir. Aholi orasida bu borada yetarli tushunchaning shakllanishi, ta'lim muassasalarida gender tengligi va inson huquqlari haqida tizimli targ'ibot olib borilishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari orqali jamiyatda genderga asoslangan zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish zarur.

Huquqiy asoslarni kuchaytirish, himoya markazlari faoliyatini kengaytirish, psixologik va ijtimoiy yordam xizmathlarini rivojlantirish, gender tengligini targ'ib etuvchi ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish gender zo'ravonligining oldini olishda samarali vosita bo'la oladi. Shunday ekan, gender zo'ravonligiga qarshi kurashish bo'yicha harakatlar muntazam davom etishi, jamiyatda har bir inson o'zini xavfsiz, qadrangan va teng his qiladigan muhit yaratilishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, barqaror, adolatli va taraqqiy etgan jamiyatning shakllanishiga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar/Литература/References:

1. "Genderga doir kompleks yondashuv gender tenglikka erishishning samarali vositasi sifatida" mavzusidagi Xalqaro konferensiya materiallari to'plami / "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti. – Toshkent: "Mahalla va oila" nashriyoti, 2023. – 172 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-562-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/-4494849>.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida" SQ-297-IV-sonli Qarori, <https://lex.uz/docs/-5466673>.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº S/4 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog’lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).